



TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTINING MUHIM OMILIDIR

Shakarova Marjona Berdiyov qizi

Toshkent shahridagi Yeoju texnika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat boshqaruvida ta'limni tutgan o'rni, bugungi kundagi boshlang'ich ta'limga qaratilyotgan e'tibor yaratilgan sharoitlar va ularni rivoji haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *Modiy borliq go'zalliklari, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar, Sebastian PEYRUZ, 999-sonli qaror, jihoz va stendlar, ta'lim, islohot, modernizasiya, integrasiya, uzluksiz ta'lim.*

“O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovor. Bu yo'nalishda katta O'zgarishlar qilinmoqda va yangi siljishlar kutilayapti. Prezident Shavkat Mirziyoyev aynan ta'limga bot-bot urg'u bermoqda. Tub muammolarni o'zi ko'tarib chiqib, oiladan tortib bog'chagacha, boshlang'ich sinfdan o'rta maktabgacha, kasb-hunar ta'lim muassasalaridan tortib universitetlargacha o'qitish sifatini oshirish zarurligi haqida gapirmoqda. O'zbekistonda oliy ta'limga talab katta...”. Sebastian PEYRUZ, Jorj Vashington universiteti professori.

Yuqorida professor aytib o'tganiday, bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonda ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan — komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Xalqimizning shunday ezgu maqsadlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mustaqillik yillarida Yurtboshimiz rahnamoligida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Malumki, boshlang'ich ta'limda o'quv-chilarning umummadaniy va ahloqiy ko'nikmalari, maktablarda dastlabki savodxonlik malakalari shakllantiriladi, va ta'limning bu bosqichida o'quvchining mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash qobiliyatlarini rivojlantirishga dastlabki poydevor qo'yiladi. O'quvchi boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga mos ravishda jismonan sog'lom bo'lish, moddiy borliq go'zalliklarini his etish, go'zallik hamda nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirish, ardoqlash hamda rioya qilish kabi ko'nikmalarga ham ega bo'lib borishi barchamizga ma'lum.

Mustaqillik yillarida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda deyarli barcha umumta'lim maktablari oliy ma'lumotli boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari bilan ta'minlandi. Shuningdek, o'quv reja va dasturlar





ham takomillashib, o'quvchini ham ma'nan, ham ruhan barkamol, dunyoqarashi keng va chuqur bilimli shaxs qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan bilimlar bilan boyitilmoqda.

2018 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy 1 yillik tayyorlovga bosqichma-bosqich o'tish choralari haqida»gi 999-sonli qarori tasdiqlangan edi. Yangi qarorga ko'ra, o'qitish davomida innovatsion pedagogik texnologiyalar, samarali uslub va metodlar qo'llaniladi. Namunali jihozlangan sinf-xonasi o'quvchi va o'qituvchi kayfiyatiga ijobiy ta'sir etishi shubhasiz. Ammo sinfda osilgan ko'rgazmali jihoz va stendlar, rasmiy axborotlar bilan tanishtirishgagina xizmat qilib qolmasligi kerak. Ular mavzularni o'tishda o'qituvchiga qo'l kelsa, o'quvchilarning o'zlashtirishiga foydasi tegsa, nur ustiga nur. Global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiyaga extiyoj ortib boradi. Chunki hayot o'zgarish sur'atlari tezlashadi. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot soxalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makoni kengayadi. Turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari ijtimoiy ong va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish maqsadida "jozibador"ligini oshirgan xolda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi.

Ta'lim-tarbiyaning "sovetcha" modeli o'rnida yangi, ya'ni hozirgi zamonda ta'lim-tarbiya soxasida dunyoda erishilgan yutuqlarga, axborot kommunikasiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etgan xolda ta'limni amalga oshirishga, ta'lim soxasiga yangi innovasiyalarni joriy etishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmokda. Uning yutuqlarini esa dunyo e'tirof etmoqda. Masalan, ta'lim sohasida innovasiyalarni joriy etishga bo'yicha O'zbekiston Respublikasini ikkinchi o'rinni olganligi ham bunga dalildir.

Mustaqillik yillarida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi³, Kadrlar tayyorlash milliy modeli ishlab chiqilib, yangicha dunyoqarash, g'oya va mafkuralar xilma-xilligiga asoslangani shaxsning ta'lim darajasi va salohiyatini oshirishga, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondoshuv madaniyatiga ega bo'lgan, yangi avlod kadrlarini tayyorlash ta'lim-tarbiya soxasida muhim o'rin to'tadi. Bu borada e'tibor berilishi zarur bo'lgan vazifalar sifatida qo'yidagilarni aytib o'tish mumkin. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o'zining "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" asarida ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvoli Tanqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar.

Birinchi vazifa - maktabgacha ta'lim soxasida. Ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim soxadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdik. Ushbu soxada bolalarni kamrab olish 27 foizni tashkil etadi. Tasdiklangan dasturga ko'ra, bu yo'nalishda 2 ming 200 ta muassasaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi. Shuningdek, tajribali pedagog va mutaxassislarini jalb etgan xolda, o'quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko'rib





chiqish zarur. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli soxalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi.

Ikkinchi vazifa - umumta'lim maktablari, lisey va kasb-xunar kollejlari, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq. Zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas. Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jaxon sivilizasiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari xali sifatli va to'liq xolda yechilgani yo'q. Yana bir muammoni xal etish ham o'ta muhim xisoblanadi: bu - pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy- ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol kumak beradigan muhitni yaratish zarur.

Uchinchi vazifa - ta'lim muassasalarini, eng avvalo, kasb-hunar kollejlari oqilona joylashtirishni, shuningdek, iqtisodiyot, ijtimoiy soxa va har bir xududning zarur mutaxassislarga bo'lgan talabini to'g'ri aniqlashni tanqidiy tahlil qilishdir.

To'rtinchi vazifa - nafaqat akademik ilm-fanni, balki oliy o'quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish. Bu o'rinda ikkita asosiy vazifani xal etish zarur: birinchi - ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg'or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofik sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning extiyojlari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart; Ikkinchi - akademiklarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, jumladan, moddiy rag'batlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Beshinchi vazifa - kitoblarni chop etish va tarqatishdagi muammolarni xal qilishdir. Bu o'rinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jaxon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda.

Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va ayniqsa, internet tizimi bizdan ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur. Ana shu vazifani xal etishda turli darsliklarni yaratish, ularni chop etish va moliyalashtirish masalalarida idoralar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik, afsuski, jiddiy tusik bo'lmoqda.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" uchinchi bosqichda uzluksiz ta'limni takomillashtirish vazifasi qo'yilgan. Shuning uchun mamlakatimizning iqtisodiy - ijtimoiy modernizatsiyalashni taqozo etadi. Lekin boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalash, uzluksiz rivojlantirish yo'llarini ilmiy asoslash muhim amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun biz magistrlik dissertatsiya mavzusi sifatida "Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning ilmiy nazariy asoslari" deb tanladik. Chunki 1. mamlakatni modernizatsiyalash vazifasidan kelib chiqib, uzluksiz ta'limni takomillash imkoniyatlari, yo'llarini ishlab chiqish 2. boshlang'ich ta'limni mazmuni metodlari, vositalarini zamonaviylashtirishning nazariy asoslarini yaratish mavzuning dolzarbligini taqozo etadi.





Ma'lumki, mamlakatimizda istiqloq qapop topgach, o'quv- tarbiya jarayoniga kompyuterlar va axborot texnologiyalari tatbiq etila boshlandi. Bu esa o'quvchilarda biotexnologiyalar, texnik vositalar bilan ishlash, mikroelektron vositalarning mohiyatini anglash ko'nikmalarini shakllantirish, olimlarning mazkur yo'nalishdagi nazariy yondashuvlari bilan ularni yaqindan tanishtirishni taqozo qilmoqda. Bu esa o'z navbatida mexnat bozorini rivojlantirish, murakkab texnologiyalarni o'zlashtirish, aholining kasbiy tarkibini tubdan o'zgartirish imkonini bermoqda. Buning natijasida ijtimoiy mehnatning ham harakteri o'zgardi, u ko'proq aqliy harakter kasb eta boshladi, bu esa shaxsning iqtisodiy faoliyatini o'zgartiradi, uning moddiy-texnik va tashkiliy negizini rivojlantiradi. Bu esa maktabning texnik bazasini rivojlantirish, uquv vositalarini muntazam modernizatsiyalash, uquv jarayonining yangi shakllarini qo'llash vazifasini 6 dolzarblashtirmoqda. O'qituvchining boshlang'ich pedagogik mahoratini takomillashtirishda mo'taxassislar bu omilni batafsil ham iqtisodiy, ham ijtimoiy pedagogik jihatdan tahlil etishlari kerak.

O'zbekistoi Respublikasining boshlang'ich ta'lim sohasidagi siyosatini ifodalovchi ko'pgina me'yoriy asoslar, YuNESKO hujjatlari hamda ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda o'qituvchining boshlang'ich pedagogik mahoratini takomillashtirishning umumdunyoviy jixatlari tahlil qilingan, mavjud muammolar va qarama-qarshi holatlar ochib berilgan. Mustaqillik yillarida umumiy o'rta boshlang'ich ta'limning maqsadi va vazifalari tubdan yangilandi. O'quvchilarning intellektual faoliyat kursatish ko'lamini kengaytirish taqozo qilinmoqda. Chunki O'zbekiston jamiyatida aqliy mehnatning mavqei keskin oshmoqda. Shuning uchun ham o'quvchilar- ni ijtimoiylashtirish va kasb-hunarga yo'llash jarayonida ularga nazariy, texnik va umummadaniy bilimlarni o'zaro mo'tanosiblikda taqdim etish zaruriyati vujudga kelmoqda. Bugungi kunda umumiy o'rta boshlang'ich ta'limning mazmuni kelajak uchun xizmat qilishi kerak. U nafaqat bizni o'rab turgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning holati va parametrlari haqida konstruktsiyalovchi, balki ularning istiqboldagi taraqqiyotini ham hisobga olgan holda belgilab berilishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quv-biluv jarayonini boshqarish tubdan o'zgardi. O'qituvchi shaxsga yunaltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sub'ektga aylandi. O'quvchilar esa, bilimlarni mustakil o'zlashtirishga safarbar etilmoqdalar. Shuning uchun ham o'qituvchining boshlang'ich pedagogik mahoratini takomillashtirish, uning natijalarini taxlil qilish va baxolash pedagogik prognostika natijalariga asoslangan holda yo'lga qo'yilishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida dars materiallarining o'quvchilar tomonidan ongli tarzda o'zlashtirilishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida ko'chma ma'noli so'zlarning asl ma'nosini anglatish, rasimga qarab reja tuzishga qaratilgan topshiriqlar bolani rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega, Boshlang'ich boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy axloq va nafosat tarbiyasini amalga oshirish zarurligini nazarda tutgan holda dars materiallarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra integral asosdagi o'qish dasturiga qo'yidagi mavzular kiritilishi lozim.





Umumiy o'rta boshlang'ich ta'lim mazmunida o'qituvchining boshlang'ich pedagogik mahoratini takomillashtirish bir qancha tushunchalarni to'plash va umumlashirishni taqozo qiladi. Fan-texnika, texnologiyalar va ishlab chiqarishdagi yangiliklarni hisobga olish muammosi o'qituvchining boshlang'ich pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim vazifalaridan biridir. Uning echimi tadqiqotimizning ko'rsatishicha, o'quvchilarning fan va ishlab chiqarishning u yoki bu sohani tanlash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Bugun har bir o'qituvchi o'ziga ishonib topshirilgan har bir soat darsni muqaddas deb bilishi va unga zarracha xiyonat qilib bo'lmasligini his etishi lozim. Ana shu maqsadda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilayotgan ustuvor yo'nalishlar o'z samarsini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ShARH// <http://uzlidep.uz/positionparty>.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. Sharq nashriyoti matbaa kontserni, 1997.
6. Xalq pedagogikasi inson kamolotining asosi. 1-kitob. Toshkent, 1992
7. O'zbekiston Respublikasining «Boshlang'ich ta'lim to'g'risida»gi qonuni 1997 yil avgustda qabul qilingan. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq nashriyoti matbaa kontserni, 1997.

INTERNET MATERIALLARI :

1. <http://maktab.zn.uz>
2. <http://olgam.zn.uz>
3. <http://ziyonet.uz>
4. <http://www.uzbaby.uz>
5. <http://dars.zn.uz>

